Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

Yoshlar musiqiy tafakkurini shakllantirish va takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili

Ahmadjon Nurmuhamedjanov*
Fardu vokal va cholg‘u ijrochiligi kafedrasi dotsenti
✉ nurmuhammadjonovpf@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlar musiqiy tafakkurini shakllantirish va takomillashtirishda o‘zbek maqom san’atining milliy musiqa madaniyatidagi o‘rni hamda jahon san’ati faoliyatidagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqom san’atining tarixiy shakllanishi, uning badiiy-falsafiy mazmuni, ijrochilik an’analari, ustoz-shogird tizimi va mintaqaviy maktablari xususida fikr yuritiladi. Shashmaqomning jahon nomoddiy madaniy merosi tizimida e’tirof etilishi uning umuminsoniy estetik qimmatini namoyon etuvchi muhim omil sifatida baholanadi. Maqom san’atining zamonaviy global madaniy jarayonda milliy o‘zlikni anglash, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, yosh avlodning estetik didini shakllantirish.

Kalit so‘zlar

maqom, shashmaqom, maddoxon, mehtar, lapar, yalla, katta ashula, dostonchilik, ijod, ommaviy axborot-kommunikatsiya imkoniyatlari.

DOI: 10.5281/zenodo.23279655

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekistonda musiqa san’ati va madaniyatini yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratildi. Musiqa madaniyatining turli yo‘nalishlari bo‘yicha yosh iste’dodlarni izlab topish, ularning ijodiy faoliyatini yuksaltirish yuzasidan g‘amxo‘rlik qilish muhim ahamiyatga molik vazifalardan biriga aylandi.“..Xalqimizning ma’naviy saviyasini oshirish, yosh avlodni yuksak insoniy g‘oyalar, ona Vatanga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida kamol toptirishda musiqa san’atining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir”. Zero, o‘tmishdagi musiqiy ijrochilik an’analarini tiklash, zamonaviy sharoitlarda saqlab qolish, o‘zbek milliy musiqiy asarlari va sozlarini xorijiy mamlakatlarda namoyish etish, musiqa ta’limida yangi an’analarni tarkib toptirish, xalq ma’naviy merosini asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga yetkazish, jamiyat hayotida musiqa madaniyatining tutgan o‘rnini tadqiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O‘zbek milliy musiqa madaniyati tarixini o‘rganishda Abdurauf Fitratning hissasi salmoqli bo‘lib, mualliflning mazkur masalaga bag‘ishlangan asar va maqolalarida o‘zbek mumtoz musiqasi, uning uslublari va ularning turk, arab, fors musiqalaridan farqi, “Sharq musiqasi” nazariyasi va uning asoslari to‘g‘risidagi tahliliy fikr-mulohazalari bayon etilgan.

O‘zbek milliy musiqa san’ati uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tdi. Xususan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ijro yo‘llari, shakllari, murakkabligiga qarab an’anaviy musiqa san’ati professional musiqa asarlari (maqom, katta ashula, dostonchilik) va xalq kuylariga (lapar, yalla, qo‘shiq, ashula) bo‘lingan. Shu bois, bu davrda o‘zbek xalqi musiqa san’ati namoyandalari faoliyati ikki yo‘nalishda rivojlanishda davom etgan: birinchisi – zodagonlar va hukmdorlarga xizmat ko‘rsatuvchi saroy musiqachilari, ikkinchisi – oddiy xalqqa xizmat ko‘rsatgan san’atkorlar. Ushbu omil tufayli o‘zbek musiqasi mumtoz musiqa va xalq qo‘shiqlariga ajralgan, degan taxmin ham mavjud. Mumtoz musiqa namunalari asosan yetuk hofiz, sozanda va bastakorlar tomonidan

yaratilib, o‘zining janrlari va ijro an’analari murakkabligi tufayli maqomchilik san’ati va dostonchilik ijro uslublari, maktablari bilan ajralib turadi.

Maqomlar Sharq xalqlarining juda qadim zamonlardan mavjud bo‘lgan musiqa janrlaridan biri sifatida musiqa merosida juda muhim o‘rinni egallaydi. An’anaviy musiqa san’atining maqomchilik yo‘nalishi Buxoro-Samarqand, Farg‘ona-Toshkent hamda Xorazmda keng rivoj topdi.

Buxoro amiri saroyida maqomlarga juda katta qiziqish bilan qaralgan. Amir Said Olimxon maqom musiqasini qadrlab, o‘zi ham dutor chalishni yaxshi bilgan va Shashmaqom kuylarini ijro etgan. Amirlikda xalq musiqachilari orasidan iqtidorli bolalar tanlab olinib, tajribali musiqachilar qo‘liga topshirilgan. Masalan, Buxoroning mashhur maqom ustalari Usta Shodi Azizov, Boboqul Fayzullayev, Shoxnazar Sohibov kabilar saroy musiqachilari qo‘lida ta’lim-tarbiya olganlar.

Buxoro musiqachilari alohida mavze va ko‘chalarda istiqomat qilib, ularning yashash manzili “Maddoxon” deb yuritilgan. Hatto, musiqachilar-ning faqat o‘zlari tushunadigan gaplashish tili bo‘lgan. Bu davrda mohir sozanda “mehtar” deb atalgan.

Toshkent va Farg‘ona vodiysida ham mumtoz musiqaning ma’lum variantlari yuzaga keldi. Ushbu yo‘nalish asosan katta ashula yo‘llaridan iborat. Ashurali Hofiz, Mirza Qosim Hofiz, Mo‘minjon Hofiz, Mo‘ydin Hoji, Berkinboy Fayziyev, Mulla To‘ychi Toshmuhammedov, G‘anijon Mirzayev, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Turg‘un Karimovlar xalq orasida tanilgan. Farg‘ona vodiysida mahalliy ijrochilik maktablari ham keng tarqalib, ular orasida ayniqsa, Qo‘qon, Marg‘ilon, Beshariq kabi ijrochilik maktablari mashhur edi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazm vohasi o‘zbek musiqa san’atida o‘zining ijrochilik va xonandalik an’analari bilan ancha mashhur bo‘lgan. Vohada maqom ijrochiligi doston yo‘llari, xalq ommaviy qo‘shiqlari o‘z yo‘nalishlari doirasida rivojlangan. Bu davrda Xorazmda Komil Xorazmiy, Mirzo, Muhammad Rahimxon Feruz, Niyozjon Xo‘ja kabi mashhur bastakorlar ijod qilgan edi. Komil Xorazmiy Xorazm tanbur nota chizig‘ini yaratdi. O‘rta Osiyoda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida musiqachilar, xususan, karnaychi, surnaychi, nog‘orachilar, aktyorlik hunari juda qadrlangan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyoga bir guruh yevropa va rus musiqashunos olimlar guruhi kirib keldi. Ularning kelishi musiqa ijodiyotining rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Musiqashunos-etnograf olim V.Uspenskiy va V.M.Belyayevlar birinchi-lar qatorida o‘zbek musiqa madaniyati tarixini tadqiq etishga kirishganlar. Ular o‘zbek mumtoz musiqa san’ati va uning o‘ziga xos jihatlari, o‘lkada musiqaning tutgan o‘rni, musiqa sozlari xususida nihoyatda boy ma’lumot-larni to‘plab, nashr ettirgan edilar.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligida musiqa san’atida jiddiy o‘zgarishlar va yangilanishlar yuz berdi. Yevropalik musiqa bilimdonlari Buxoro amirligi va Xiva xonligida mumtoz musiqa va xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish va ularni notalashtirish, xalq musiqa cholg‘ularini to‘plashga e’tibor qaratdi. Turkiston shaharlarida musiqiy jamiyatlar tuzilib, havaskorlar jalb etildi. Rus musiqa bilimdonlari tomonidan o‘zbek xalq qo‘shiqlarini o‘rganilishi, ularning notalashtirilishi, xorij matbuotida nashr ettirilishi kabi holatlar o‘z davrida musiqa san’atining rivojiga hissa qo‘shdi. Milliy musiqa san’atimizda yevropa, sharq musiqa operalari, simfoniyalari yoki jaz, rep va va xakozolardan qolishmaydigan, aksincha, ulardan murakkabroq, go‘zalroq asarlar borligiga ishonch hosil bo‘ladi.

Biz hamma millat musiqalarini ijro etishimiz mumkin. Lekin ular bizning maqomlarimiz yoki mumtoz musiqamizni ijro etishlari juda qiyin. Chunki bizning soz san’atimiz juda murakkab san’at. Shuning uchun ham, musiqa yaratilayotganda qaysi millat vakili ekanligini va ota bobolarimiz kim ekanligini unutmasligimiz kerak. Agar o‘z millat musiqiy merosini mukammal o‘rgansa va o‘z she’riyatini tushunsa, o‘z milliy musiqasini va she’riyatini mazasini hech bir millatdan topa olmaydi. Bir millat ikkinchi bir millatning ustidan g‘olib kelmoqchi bo‘lsa, u mamlakatga qurol ko‘tarib borishi shart emas. O‘z milliy g‘oyasi, urf-odatlari, o‘z san’ati, musiqasini va adabiyotini boshqa mamlakatda targ‘ib etib, shu mamlakat xalqini o‘z tomoniga og‘dirsa, bemalol u mamlakat ustidan hukmronlik qilishi mumkin. San’at juda mashaqqatli kasbdir. Hofiz bo‘lmoq uchun, avvalo bir cholg‘u asbobini chalishni o‘rganmog‘i va shu bilan birga doira usulini mukammal bilmog‘i lozimdir. Chunki mumtoz musiqalarimiz va maqomlarimizni, usulni, ritmni o‘rganmasdan yoki his etmasdan turib,

o‘rganib bo‘lmaydi. Demak, ohanglarni kuy qilib, kuyning jumlalarini qolipga solib, u kuyga nom berib, qanday kuyligini aniqlab olishimizda ritmlarning, ya’ni usullarning ahamiyati kattadir. Bir ashullani o‘rganib, ijro etishdan oldin shu asarni yaratilish tarixini o‘rganmoq joizdir. Ashulaning ohangini kim yaratgan, so‘zlarini kim yozgan, qaysi maqomga taalluqli, bu asarni ustozlardan kimlar ijro etgan va kimning ijrosi mukammal chiqqan? Har qo‘shiqchining o‘ziga yarasha ovozi bo‘ladi va o‘ziga mos ijro uslubi bo‘ladi. Ijrochi aytmoqchi bo‘lgan qo‘shiqni o‘z ovoz imkoniyatiga mos tushish-tushmasligini aniqlab olmog‘i kerak. Ovoz jihatdan ham, ijro yo‘nalishi jihatidan ham to‘g‘ri kelmaydigan qo‘shiqlarni ijro etmaslik darkor. Bir qo‘shiqchi butun umri davomida yaxshi qo‘shiqlar aytib, o‘ziga mos yaxshi ijrosi bilan el-yurt orasida katta obro‘ga ega bo‘lishi mumkin. Ammo bitta xato qilib, o‘ziga to‘g‘ri kelmaydigan va o‘ziga mos bo‘lmagan birgina qo‘shiq aytib bir umr yiqqan obro‘sini poymol qilishi mumkin. Ijod inson faoliyatining shunday o‘ziga xos turiki, bunda his-tuyg‘u, bilim va tafakkur uyg‘unligi asosida moddiy yoki ma’naviy boylik yaratiladi. Ijod murakkab ruhiy jarayon bo‘lib, unda shaxs ruhiyatining barcha qatlamlari ishtirok etadi. “Ijod (arab. yaratish, kashf etish, vujudga keltirish) – badiiy, ilmiy, amaliy asar yoki moddiy boylikni yaratish, vujudga keltirish.” Ijod – mehnatning yuksak shakli bo‘lib, insonlar ehtiyojini qondiradigan va ijtimoiy foyda keltiradigan mehnatdir. Musiqa asrlar davomida shakllanib, sayqal topib, badiiylashib, yuksak pog‘onalarga ko‘tarilgan va har bir xalqning madaniy-ma’naviy boyligiga aylangan. Musiqa san’ati insonga yuksak tuyg‘u, zavq-shavq, g‘oyalar olamini baxsh etadi. Har bir xalqning o‘z musiqasi, o‘zining qulog‘iga yoqadigan ohanglari bor. Musiqa elatlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, insonlarning qalbini, ongini yomon fikrlardan, illatlardan tozalaydi.

Xalq musiqasining ma’naviy barkamol insonni shakllantirishdagi xususiyatlari ancha keng bo‘lib, hozirgi kunda ularning ruhiy, estetik, ma’rifiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Ayniqsa, o‘quvchilarning estetik didlarini o‘stirishda, bilish jarayonlarini takomillashtirishda rasm, mehnat darslarida musiqa, xalq kuylaridan samarali foydalanish o‘quvchilarni aqliy taraqqiyot darajalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Talaba yoshlardagi ijobiy jihatlarni tarbiyalashda musiqaning sehridan unumli foydalanish, milliy kuy va qo‘shiqlar orqali shaxsda o‘z-o‘ziga aniq va to‘g‘ri baho bera olish qobiliyatlarini o‘stirish muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek kuylari asrlar osha avloddan-avlodga o‘tar ekan, bu jarayonda u boyib, xalqning o‘y-fikri, dardi, orzusi, donishmandligini o‘zida mujassamlashtiradi. O‘zining an’anaviyligi, ommabopligi, oddiyligi va buyukligi, ta’sirchanligi, ko‘plab badiiy, estetik tarbiya vositalariga egaligi bilan millatning sevimli san’at turiga aylangan. Xalq musiqasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish ma’naviy boy, intellektual barkamol insonni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 40 foizni tashkil etadi. Shunday ekan, kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarning ma’naviy kamoloti eng dolzarb masala hisoblanadi.

Yoshlarning iqtidorlarini ro‘yobga chiqarish ko‘p jihatdan ular qobiliyatlarini erta aniqlash va salohiyatlarini namoyon etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish yo‘lida turli tanlovlar o‘tkazilib kelinmoqda. Bu kabi ko‘rik-tanlovlar yoshlarimizda milliy iftixor va milliy g‘urur hamda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, davlatimiz va hukumatimiz rahbariyati tomonidan keyingi yillarda bolalar musiqa va san’at maktabi faoliyatlarini yaxshilash ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, iqtidorli bolalarni barkamol inson etib tarbiyalash masalalarini o‘zida aks ettirish davlat dasturini ishlab chiqarish borasida doimiy ravishda ishlar olib borilmoqda.

Musiqa madaniyatining qadimiy tarixga ega ekanligi bizgacha yetib kelgan mutafakkirlarning qimmatli fikrlaridan ham ma’lumdir. Xususan, antik davr faylasuflaridan biri Aflotunning fikricha, davlatning kuch-qudrati unda qanday musiqa qaysi ohang va qanday ritmda yangrayotganligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Aflotun va uning izdoshlari davlat uchun insonni yuksaklikka ko‘tarishda yordam beruvchi musiqa kerak, deb hisoblaganlar. Xalq qo‘shiqlari xalq va millatning ma’naviy musiqiy boyligi hisoblanadi. Har bir xalq asarining tarixi, uning an’anaviy ijrosi, xalq urf-odatlari va boshqa qadriyatlari bilan bog‘lanishini va qaysi janrga mansubligi bilan ijro etish hamda undan ahloqiy xulosalar chiqarib olish madaniyatini egallash o‘quvchilarning xalq qo‘shiqlari orqali ma’naviy-ahloqiy tarbiyalanganligini ko‘rsatuvchi muhim omil hisoblanadi.

Qadimgi Xitoyda musiqa tartib va taraqqiyot ramzi, eng muhim vositasi hisoblanib, o‘rganilishi lozim bo‘lgan fanlar qatoriga kiritilgan.

Sharq musiqa madaniyatining eng yirik namoyondasi Abu Nasr Forobiy o‘zining “Musiqa haqida katta kitob” nomli asarida musiqaning axloqiy-tarbiyaviy jihatlariga alohida e’tibor bergan holda quyidagi fikrlarni aytib o‘tgan. “Bu ilm shu ma’noda foydalidirki, u o‘z muvozanatini yo‘qotgan odamlar hulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan hulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo‘lgan odamlar hulqini muvozanatda saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo‘lsa ruh ham so‘ladi, tana to‘siqqa uchrasa, ruh ham to‘siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta’siri bilan ruhni sog‘aytirish yordamida tana sog‘aytiriladi, ruh esa o‘z kuchlarini tartibga solish va o‘z mohiyatiga (substansiyasiga) moslashtirilishi orqali sog‘ayadi”.

Shuningdek, buyuk alloma Abu Ali Ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida: “Bolalarning mijozini kuchaytirmoq uchun, unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun aytish odat bo‘lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisi qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo‘lgan iste’dodi hosil qilinadi”,- deb yozib qoldirgan.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan fikr-mulohazalar musiqa madaniyatining qadimda ham inson ongi, tafakkuri, ma’naviy kamolotida muhim o‘rin egalaganidan dalolatdir. Ushbu fikrlardan kelib chiqib, ayrim yosh ijrochi va guruhlarning asarlari, ijro usullari, sahna harakatlarida ajnabiy ommaviy madaniyat ko‘rinishlariga taqlid qilish, odob-ahloq qoidalariga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan kliplar, talaffuzni buzib aytish kabi nomunosib harakatlarni ko‘rib, yoshlarning yulduzli kasaliga chalinayotganligi yengil-yelpi ohanglarga o‘rganib qolishsa, bora-bora ularning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, ma’naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi mumkinligi, bunday holda o‘zbek milliy qo‘shiqchilik san’atining nochor holga tushib qolishi mumkin. Bunday ko‘rinishlar yoshlar ma’naviy qiyofasining salbiy jihatlari hisoblanadi.

Shuning uchun yoshlarimizni ma’naviy sog‘lom va barkamol shaxs bo‘lib yetishishida milliy musiqamizning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish hozirgi kundagi ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va psixologik zaruratdir.

Bugungi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot musiqa olamiga ham keng qamrovli tarzda kirib keldi. Buning, tabiiyki, ijobiy tomonlari bilan birga salbiy oqibatlari ham borki, ular ko‘proq fonogrammaga bog‘liqdir. Musiqada jonli ijroni “ijrochi-tinglovchi” o‘rtasidagi samimiy muloqotning o‘rnini har qanday texnika hech qachon bosa olmaydi. Shu bilan birga qo‘shiqchilik san’atiga kirib kelayotgan ilmiy-texnik taraqqiyotning salbiy oqibatlaridan biri yoshlarimizda G‘arb musiqasiga nisbatan taqlid kuchayotganida ko‘rinmoqda. Shu o‘rinda qo‘shiqchilik san’atida milliylik deyilganda, jahon sivilizatsiyasidagi, xususan yevropacha usullarni to‘liq inkor etish tushunilmasligi kerak. Zero, har bir madaniyatdagi insonparvarlik va ezgulik his-tuyg‘ulariga yo‘g‘rilgan jihatlar ayni paytda umuminsoniy qadriyatlardir. G‘arb san’atining durdonalari bo‘lmish Motsart, Betxoven, Bax asarlari har insonga ma’naviy jihatdan ijobiy ta’sir qiladi. Lekin, ba’zi G‘arb musiqasiga oid yengil-yelpi musiqa va kliplar yoshlarimizni ma’naviy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayrim yosh ijodkorlar orasida tezroq obro‘-e’tibor qozonish maqsadida G‘arb va Sharq musiqalarini, ayniqsa, ularning sho‘x ijro etiladigan namunalarini olib, unga o‘zbekcha so‘zlarni qo‘shib, ashula aytish kuchaydi. Bunday hol bir tomondan madaniyatdagi ochiqdan-ochiq ko‘chirmachilik bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘zbek milliy qo‘shiqchilik san’atining yanada nochor holga tushishiga sabab bo‘lmoqda. Eng muhimi, yoshlarimizning ma’naviy dunyosida yot elementlarni shakllantirishga olib kelmoqda. Shuning uchun, ta’lim jarayonini takomillashtirish, musiqiy pedagoglar tayyorlash sifatini yaxshilash, yangi ilg‘or pedagogik g‘oyalarni, jumladan ta’lim jarayonida oldindan belgilangan maqsad va erishilgan natijani shu maqsadga mosligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan usul, vosita, mazmun va tashkiliy shakllar majmuini o‘quv jarayoniga keng tatbiq etishni taqazo etadi. Shu bilan birga, yoshlarimizning qiziqishlarini to‘laroq qondirish uchun ma’naviy targ‘ibot ishlari saviyasini yuksaltirish, mazmun-mohiyatini boyitish, ommabop musiqiy adabiyotlarni ko‘plab yaratish lozim. Buning uchun har qaysi soha va yo‘nalishda maqsadli dasturlarni ishlab chiqib, ularni moddiy va tashkiliy ta’minlash bilan hayotga muntazam tadbiq etish shart. Inson tanasiga musiqa ta’sirining kuchi o‘ta murakkabdir. U bosh miyaga ta’sir ko‘rsatish orqali kishini serharakat, yoki, aksincha, tinchlantirishi mumkin. Inson ongiga musiqa ritmi ta’sir ko‘rsatadi. Vujud esa shu ritmga bo‘ysunadi. Yurak bir maromda ura boshlaydi. Psixologlar kun bo‘yi to‘plangan stress-charchoqni musiqa tinglash orqali daf qilishni tavsiya qilishadi. Kechqurun uy yumushlaridan holi bo‘lgach, yaxshi bir musiqa tinglashni maslahat berishadi. Albatta foydasi seziladi. Bunda

meyor darajasidan chiqmaslik kerak. Aks holda musiqa aks ta’sir etishi ham mumkin. Ayniqsa, yoshlar bunga jiddiy e’tibor berishlari mumkin bo‘ladi. Ular ko‘pincha kuyning shovqin darajasi, musiqa sadosining kuchi bilan hisoblashmaydilar. Kuchli musiqa tinglash kishining eshitish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, asab tizimiga zarar yetkazishi mumkin. Bu holat insonda nevroz, uyqusizlik kasalliklarini paydo qilishi mumkin ekan. Olimlar aniqlashicha, rok musiqasini doimiy baland tovushda eshitish oqibatida ayrim yoshlarda teri kasalliklari paydo bo‘lganligi aniqlangan. Qolaversa, musiqani transportda tinglash juda zararlidir. Chunki, transport vositasining shovqini musiqaning orombaxsh xususiyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra pleyer tovushining maksimal ovoz kuchi 1214 detsibellga yetishi mumkin ekan. Qiyoslash uchun quyidagi ma’lumotni keltirib o‘tamiz: diskatekalardagi shovqin darajasi 80-100 detsibellga, to‘qimachilik yoki temirchilik sehidagi shovqin kuchi esa 90-100 detsibellga teng ekani ma’lum bo‘lgan. Shuning uchun, mutaxassislar musiqani tinch joyda, meyor darajasidagi ovoz balandligida tinglashni tavsiya etishadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, buyuk mutafakkirlarning musiqa san’ati va tarbiyasi xususidagi fikr-mulohazalaridan foydalansak, yoshlarimizga ota-bobolarimiz qoldirgan merosni, kuy-qo‘shiqlarimizni ularning musiqiy ko‘nikmalarini rivojlantirib, nafaqat musiqa tinglashni, balki hissiyot bilan uni idrok etishini, mazmuniga oid kechinmalarni paydo bo‘lishini va ularni ifodali ijro etish qobiliyatini tarbiyalashimiz kerak.

“Hozirgi globallashuv davrida, inson ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan bir davrda turli g‘oyaviy tahdid va xurujlar jamiyatimizing ma’naviy xayotiga ta’sir ko‘rsatishning kuchli quroli sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday murakkab vaziyatda ana shunday bosimga bardosh bera oladigan jamiyatni shakllantirish uchun quyidagilar xayotimizning zaruriy talablariga aylanmoqda.

Turli ma’naviy buzg‘unchilik, vayronkorlik harakatlari va xurujlarining oldini olish, aholi, ayniqsa, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizda ularga nisbatan ma’naviy immunitetni shakllantirish, ezgu g‘oyalarni targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratish;

Jaholat, umumiy saviyaning pastligi buzg‘unchi g‘oyalarga ishonuvchanlik va ularning ta’siriga berilish holatlarini bartaraf etish uchun puxta ishlangan va zamonaviy ijtimoiy fan yutuqlariga tayanadigan ma’naviy ta’lim-tarbiyaning izchil amalga oshirilishiga erishish;

Bu borada ta’lim bosqichlari, ma’naviyat va ma’rifat tizimi uchun zarur bo‘lgan o‘quv va amaliy dasturlar tuzish va ularni joriy etish;

Aholining ma’naviy-ma’rifiy savodxonligini yangi bosqichga ko‘tarish, ushbu yo‘nalishdagi ta’lim-tarbiya ishlarini aniqlash, bu boradagi samarali faoliyat mexanizmini yaratish;

Axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan faoliyatni takomillashtirish;

Sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish”.

Insonni komillikka yetaklashda musiqiy ta’sir imkoniyatlarini unutmaslik, o‘zbek musiqasida xalqning ma’naviy madaniyatiga doir durdonalar to‘plangan bo‘lib, hozirgi mustaqillik davrida milliy o‘zlikni anglash va milliy ongni taraqqiy ettirishdagi ahamiyatini yodda tutish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 avgustdagi ”O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3212-sonli qarori (Elektron resurs) // www.uza.uz.
2. Bekjon Rahmon o‘g‘li va Muhammad Yusuf Devonzoda (Xarratov). Xorazm musiqiy tarixchasi (arab alifbosida). – Moskva, 1925.
3. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi (arab alifbosida). – Samarqand-Toshkent, 1927. – 80 b.; Fitrat A. O‘zbek musiqasi to‘g‘risida // Alanga, 1928, №2.
4. Ziyayeva D. X. O‘zbekiston shaharlari XIX asr ikkinchi yarmi –XX asr boshlarida: shahar madaniyati va urbanizatsiya jarayonlari. – Toshkent: Yangi nashr, 2017. – B.370.
5. Mehtar-o‘z kasbini puxta egallagan musiqachi-sozanda. Akbarov I. Muzika lug‘ati. – Toshkent, 1981. –B.201.

6. Uspenskiy V. Klassicheskaya muzika uzbekov. – Tashkent, 1927; Belyayev V. M. Muzika v Uzbekistane // Jizn iskusstva, 1929, №6; Belyayev V. M. Muzika uzbekov // Proletarskiy muzikant, 1930, №4; Belyayev V. M. Muzika turkmen i uzbekov // Proletarskiy muzikant, 1930. №5; Belyayev V. M. Muzika uzbekov // Sovetskiy teatr. 1930 №7; Belyayev V. M. Muzikalniye instrumenti Uzbekistana. – Moskva, 1933. – 132 s.; Belyayev V. M. 25 let nauchno-muzikalnoy deyatelnosti (Tvorcheskiy samootchet) // Sovetskaya muzika, 1937, №6. – S.108; Belyayev V. M. Ocherki razvitiya muzikalnoy kulturi po territorii Uzbekistana s drevneyshix vremen. – Tashkent, 1941 va boshqalar.
7. Rizayev Sh. O‘zbek dramaturgiyasi va teatrining asoschisi // Teatr, 2006, №1. – B.10-12.
8. Ma’naviyat. G‘.G‘ nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2010. 185 b.
9. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. O‘zbekiston. Toshkent-2022. 263-264 bb.